DOI: 10.65322/j.srd.04182026.40

UO‘T94 (575.1)001 (09) (575.1)

FAN, TA’LIM, MADANIYAT TIZIMIDAGI O‘ZGARISHLARDA ZIYOLILAR FAOLIYATI. (1985–2000 YILLAR)

Alixanov M.M., *t.f.n., dotsent,*
Ijtimoiy fanlar kafedrasi,
E-mail: alixanov1976_@gmail.com
Namanga davlat texnika universiteti

Annotatsiya: *Maqolada 1985–2000 yillarda O‘zbekistonda fan, ta’lim va madaniyat sohalarida yuz bergan o‘zgarishlarda ziyolilarning o‘rni va faoliyati tahlil qilingan. Milliy-ma’naviy merosni tiklash, tarixiy xotirani mustahkamlash, ta’lim tizimini yangilash va madaniy hayotni rivojlantirish jarayonlarida ziyolilarning ishtiroki yoritilgan. Shuningdek, mustaqillik sharoitida ilmiy va ma’rifiy muassasalar faoliyati hamda milliy qadriyatlarni targ‘ib etish masalalari ochib berilgan.*

Abstract: *The article analyzes the role and activities of the intelligentsia in the transformations that took place in the fields of science, education, and culture in Uzbekistan during 1985–2000. It highlights the participation of intellectuals in the restoration of national and spiritual heritage, strengthening historical memory, reforming the education system, and developing cultural life. The article also examines the activities of scientific and educational institutions in the conditions of independence, as well as issues related to the promotion of national values.*

Аннотация: *В статье анализируются роль и деятельность интеллигенции в изменениях, происходивших в сфере науки, образования и культуры Узбекистана в 1985–2000 годах. Освещается участие интеллигенции в восстановлении национально-духовного наследия, укреплении исторической памяти, обновлении системы образования и развитии культурной жизни. Также рассматривается деятельность научных и просветительских учреждений в условиях независимости, а также вопросы пропаганды национальных ценностей.*

Kalit so‘zlar: *ziyolilar, fan, ta’lim, madaniyat, ma’naviyat, milliy qadriyatlar, tarixiy xotira, mustaqillik, ilmiy muassasalar, ma’rifiy jarayonlar, madaniy meros.*

Keywords: *intelligentsia, science, education, culture, spirituality, national values, historical memory, independence, scientific institutions, educational processes, cultural heritage.*

Ключевые слова: *интеллигенция, наука, образование, культура, духовность, национальные ценности, историческая память, независимость, научные учреждения, просветительские процессы, культурное наследие.*

Kirish. Mustaqillik davrida respublika oldida turgan eng muhim, dolzarb vazifalardan biri jamiyat va xalq ongida ma’naviy sohada yuzaga kelgan nuqsonlarni bartaraf etish, inqirozdan olib chiqish hamda uni rivojlantirish edi. Bunday vazifaning dolzarbligi shundaki, qariyb bir yarim asrlik mustamlakachilik o‘zligimizni yo‘qotishga olib keldi. Markazga har tomonlama qaramlik, respublikaning ijtimoiy-siyosiy taraqqiyotiga, milliy madaniyati va ma’rifati rivojiga to‘siq bo‘ldi. Shuning uchun ham ma’naviyatni tiklash va yuksaltirish masalasi umumdavlat ahamiyatiga ega bo‘lib qoldi. I.A. Karimovning mamlakatni ma’naviy yuksaltirish borasida quyidagilarni ta’kidlaydi: "ezgu maqsadlarni amalga oshirish uchun, avvalo, barchamizga bog‘liq buyuk bir muammoni yechishimiz, ya’ni ma’naviy inqirozdan chiqishimiz lozim. Bu, eng sharafli va eng og‘ir vazifalardan biri. Uni osonlikcha hal etish qiyin... ma’naviy islohotlar – qullik va mutelik iskanjasidan ozod bo‘lish, qadrini baland tutish, ota-bobolarimizning udumlarini tiklab, ularga

DOI: 10.65322/j.srd.04182026.40

munosib voris bo‘lish – bundan og‘irroq va sharafliroq vazifa yo‘q bu dunyoda" [1]. Prezidentning ushbu g‘oyalari respublikani ma’naviy yuksaltirish uchun muhim uslubiy ahamiyat kasb etdi.

Usullar. "Ma’naviyat – odamning ruhiy va aqliy olami yig‘indisi. Ma’naviyat inson va jamiyat madaniyatining negizi, inson va jamiyat hayoti ma’lum yo‘nalishining bosh omili. Boy ma’naviyatsiz buyuk davlat qurib bo‘lmaydi" [2]. Ma’naviyat insonni ruhiy poklanish va yuksalishga da’vat etadi, insonning ichki olamini boyitadi, uning iymon-irodasi, e’tiqodini mustahkamlaydi, vijdonini uyg‘otadi. Moddiy narsalar odamga jismoniy kuch bersa, ma’naviyat unga ruhiy ozuqa va qudrat bag‘ishlaydi.

Natijalar. Jamiyat hayotini ma’naviy inqirozdan chiqarish va ma’naviy sohani yuksaltirishda ziyolilar mehnati o‘ziga xos o‘rin tutadi, zero, ziyoli xalqning ilg‘or va o‘qimishli qatlamidir. "Har qanday zamonda ham, har qanday jamiyatning ilg‘or, progressiv, umuman, xalqni orqasidan ergashtira oladigan ongli, avangard qatlami – ziyolilardir" [3]. Ular ma’naviy hayotning faol ishtirokchilari hisoblanadi.

Respublikada yuzaga kelgan ma’naviy inqirozni bartaraf etish borasidagi dadil qadam O‘zbekiston Kompartiyasi XXII s’yezdida (1990 yil iyun) Prezident I.A. Karimovning siyosiy ma’ruzasidan boshlangan edi. O‘shanda I.A. Karimov jamiyatni ma’naviy va axloqiy sog‘lomlashtirish haqida so‘z yuritib: "Navoiy, Ulug‘bek, Bobur, Mashrab, Furqat, Qodiriy va xalqimizning boshqa buyuk farzandlari yubileylarini o‘tkazish to‘g‘risidagi qarorini juda ruhlanib kutib olganligi bejiz emas, deb o‘ylaymiz. Ularning merosi O‘zbekiston xalqlari umuminsoniy qadriyatlarining ravnaqi va boyishiga xizmat qilib kelgan edi va bundan buyon ham xizmat qiladi. Biz ularning bebaho merosini xalqqa, avvalo, yoshlarga yetkazish uchun barcha ishlarni qilamiz" [4], deb ta’kidlaydi. Bu fikrlar respublikada ma’naviy poklanish va yangilanish davrining boshlanganligidan darak beradi. Shu bilan birgalikda Prezident ma’naviy yangilanishda ziyolilarning o‘rnini quyidagicha baholadi: "Sira mubolag‘asiz aytish mumkin-ki, xalqni ma’naviy jihatdan sog‘lomlashtirish sohasidagi ana shu katta ishda ziyolilarimiz asosiy, hal qiluvchi o‘rinni egallashi kerak. Ziyolilarning so‘zi odamlarning aql-shuuri va dilida aks-sado beradi".

I.A. Karimovning nutqi ziyolilarga kuchli dalda bo‘lib xizmat qildi. Ma’naviy yuksalishga ijobiy ta’sir ko‘rsatuvchi bir qator asarlar nashr qilindi. Jumladan, P. Qodirovning "Yulduzli tunlar" romani chop etildi. Akademik B. Ahmedov so‘zboshisi bilan "Sharq yulduzi" jurnalida "Temur tuzuklari" to‘la ravishda e’lon qilindi.

O‘zbekiston mustaqilikka erishgandan so‘ng, asrlar davomida ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan moddiy va ma’naviy boyliklarni e’zozlash, asrab avaylash, o‘rganish hamda keng jamoatchilikka yetkazish imkoniyatiga ega bo‘lindi. 1991 yilda O‘zbekistonda Alisher Navoiy tavalludining 550 yilligi keng nishonlandi. Bu marosimga respublikada katta tayyorgarlik ishlari amalga oshirildi hamda xalqning katta madaniyat bayramiga aylandi. Bayram arafasida va undan keyingi yillarda ushbu buyuk mutafakkir shoirning adabiy merosini xalq ommasiga yetkazish uchun navoiyshunos, tilshunos va adabiyotshunos olimlar tomonidan muhim ishlar amalga oshirildi. Shoirning yigirma jildlik mukammal asarlar to‘plamini nashr etish ishlariga katta e’tibor qaratildi. Bu borada O‘zR FA Til va adabiyot instituti ilmiy xodimlari katta tashabbus ko‘rsatdilar. Shu bilan birgalikda "Farhod va Shirin", "Layli va Majnun", "Hayrat ul-abror" singari shoh asarlari alohida-alohida holda bir necha ming nusxada bosmadan chiqarildi [5], "Tarixi anbiyo va hukamo", "Munojot" va boshqa bir necha ilmiy-ommabop asarlar, sovg‘a kitoblar nashr qilindi, ilmiy-ommabop asarlar ichida professor Aziz Qayumovning 1991 yilda bosilgan Alisher Navoiyning kam o‘rganilgan asarlarini tadqiq etgan "Nodir sahifalar" kitobi alohida diqqatga sazovordir [6].

Yubiley oldidan mutafakkirning hayoti va ijodiga bag‘ishlangan sahna asarlari va kinofilmlar yaratildi. Sahna asarlarida, sovet davridagidan farqli o‘laroq, Navoiy asarlarini o‘rganishda asl manbalarga tayanish, tarixiy haqiqatga suyanish, epik va mifologik ko‘tarinkilikdan qochib, oddiy insoniy tuyg‘ularni va munosabatlarni ko‘rsatishga e’tibor

DOI: 10.65322/j.srd.04182026.40

qaratildi. Mannon Uyg‘ur tomonidan 50-yillarda sahnalashtirilgan "Alisher Navoiy" spektakliga 1991 yilda Hamza nomidagi O‘zbek Davlat akademik drama teatri jamoasi qaytadan murojaat qildi. T. Azizov va Izzat Sulton yangi talqinda "Alisher Navoiy" dramasini, Abror Hidoyatov nomidagi O‘zbek drama teatrida atoqli rejissyor B. Yo‘ldoshev Alisher Navoiyning "Saddi Iskandariy" dostoni asosida "Iskandar" dramasini sahnalashtirdi [7].

1991 yil 24 sentyabr kuni Alisher Navoiy yubileyining ochilish marosimi hamda 26 sentyabrda Xalqaro ilmiy konferensiya bo‘lib o‘tdi. Toshkentda shoirga muhtasham haykal va Navoiy xiyoboni barpo etildi. Barcha tantanalar milliy an’analar va ruhiyatimizga xos tarzda bo‘lib o‘tdi. Navoiy qoldirgan ma’naviy meros mustaqillik sharoitida jamiyatni ma’naviy jihatdan yuksaltirishda o‘ziga xos muhim omil bo‘lib xizmat qilmoqda.

Mamlakat ma’naviy hayotidagi ijobiy o‘zgarishlarni yanada takomillashtirish maqsadida 1994 yil 23 aprelda tashkil etilgan "Ma’naviyat va ma’rifat" jamoatchilik markazi jamiyatning turli tabaqalari bilan ishlaydigan ijtimoiy tashkilotdir. Unda faoliyat olib borayotgan ziyolilar tarkibida 4 ta bo‘lim – milliy va umuminsoniy qadriyatlar, milliy urf-odatlar, an’analarini o‘rganish va ma’naviy-ma’rifiy istiqbol tadqiqotlari, huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati hamda g‘oyalar, fikrlar, dasturlar jamg‘armasi bo‘limlarida tadqiqotlar o‘tkazish, xalqimizning boy ma’naviy-madaniy merosini o‘rganish, millat kelajagini belgilaydigan ilg‘or g‘oyalarni izlash, rivojlantirishning umumqonuniyatlarini topib, ularni hayotga tadbiq etish, Xalq ta’limi, Oliy va o‘rta maxsus ta’lim tizimini o‘rganish, xorijiy davlatlardagi ma’naviyat, ma’rifatning ahvoli, din va vijdon erkinligini tahlil etish, madaniyat, ilm-fanga oid masalalarni o‘rganmoqdalar [8].

Tashkiliy davrda markazning Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar, shaharlar va tumanlarda kengashlari tuzildi. Bu kengashlarga yirik mutaxassis – olimlar, pedagoglar, mahalla oqsoqollari va keng jamoatchilik vakillari jalb qilindi.

Ma’naviyat va ma’rifat jamoatchilik markazi nisbatan qisqa vaqt ichida turli sosiologik tadqiqotlar, so‘rovlar o‘tkazish orqali ma’naviy-ma’rifiy ishlarni tashkil etish yuzasidan tavsiyalar ishlab chiqdi. Shu bilan birgalikda, jamoat birlashmalari, ilmiy-ijodiy muassasa va tashkilotlar va ommaviy axborot vositalarining o‘zaro hamkorligini mustahkamlashga ko‘maklashish, ma’naviy-marifiy masalalarga doir ko‘plab tadbirlar, anjumanlar va ko‘rgazmalar tashkil etish yo‘lga qo‘yildi. Bular madaniy-ma’rifiy jarayonni tezlashtirish, milliy madaniyat va urf-odatlarni keng targ‘ib qilish, milliy g‘urur va iftixor tuyg‘ularini kuchaytirishda muhim o‘rin tutmoqda.

"Ma’naviyat va ma’rifat" jamoatchilik markazi hamda uning qoshidagi "Oltin meros" xalqaro jamg‘armasi, "Tafakkur" jurnali va "Ma’naviyat" nashriyotida faoliyat olib borayotgan ziyolilar xalqning o‘zligini anglashi, milliy-ma’naviy ruhiyati, urf-odati, an’analarining tiklanishida, boy ma’naviy va tarixiy merosni o‘rganishda, xalqni millatga xos bo‘lmagan mafkuradan xalos etishda oldingi o‘rinlarda bordilar.

Xalqni uyg‘otmoqchi bo‘lsang, uning tarixini uyg‘ot, deyiladi. Masalani oydinlashtirish uchun shularga alohida e’tibor berish kerakki, tarixiy merosni o‘rganish va undan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Tarixiy merosni o‘rganish, undan foydalanish kishilarning ongli faoliyati jarayoni bilan bog‘liq. Bu jarayonning samarasi ijtimoiy taraqqiyotni, jumladan, ma’naviy taraqqiyotni tezlashtirishi mumkin. Chunki tarixiy madaniy boyliklarni egallash va bundan keyingi ma’naviy faoliyat uchun undan foydalanish darajasi juda muhimdir.

Mustaqillik sharoitida tarix fanini ob’yektiv, turli mafkuraviy tazyiqlardan holi ravishda o‘rganish imkoniyati vujudga keldi. "Odamzot borki, – deydi I.A. Karimov, – avlod-ajdodi kimligini, nasl-nasabini, o‘zi tug‘ilib voyaga yetgan qishloq, shahar, xullas, Vatanning tarixini bilishni istaydi. O‘zlikni anglash tarixni bilishdan boshlanadi" [9]. Haqiqatan ham, ma’naviy jihatdan yuksalish uchun tarixni o‘rganish, tadqiq etish lozim. Mustaqillik yillarida respublika olimlari bu masalaning mohiyatini to‘g‘ri anglagan holda o‘tmishdagi, yaqin kunlardagi tarixiy voqealar, hodisa va jarayonlarni chuqur ilmiy hamda mantiqiy asosda o‘rganish va xalqqa yetkazish borasida bir qator ishlarni amalga oshirdilar.

DOI: 10.65322/j.srd.04182026.40

O‘zbekiston tarixi fanining ta’lim tizimidagi o‘ziga munosib o‘rni ham belgilab olindi. Sovet tuzumi davrida ona yurtimiz tarixini o‘qitishga yetarli e’tibor qaratilmagani bois ko‘pchilik o‘quvchilar Vatan tarixi haqida, ayniqsa, inqilobdan oldingi davr tarixidan juda kam ma’lumotga ega edilar. Mustaqillik yillarida ta’lim sohasida keng tarzda amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida o‘quvchi yoshlarni, talabalarni O‘zbekiston tarixi bilan batafsil tanishtirish, tarixiy bilimlarini oshirish yaxshi yo‘lga qo‘yildi. O‘zbekiston tarixi bo‘yicha ajratilgan dars soatlari miqdori sezilarli darajada oshirildi.

Tarixchi olimlar tomonidan Vatanimiz tarixi bo‘yicha qator fundamental ilmiy-tadqiqot ishlari amalga oshirildi. Tarixning kam o‘rganilgan sohalariga katta e’tibor qaratildi, undagi dog‘lar yuvib tashlandi. Jumladan, XIX asr oxiri va XX asr boshlaridagi Turkistondagi milliy istiqlolchilik harakatlari haqida H. Ziyoyev, D. Ziyoyeva, Q. Rajabov va boshqalar, Turkiston muxtoriyati haqida S. A’zamxo‘jayev va boshqalar, jadidlarning ma’rifatparvarlik faoliyati haqida D. Alimova va boshqa bir qator taniqli olimlar fundamental tadqiqotlar olib bordilar hamda xalqimizni tarixiy haqiqatdan boxabar bo‘lishiga o‘z hissalarini qo‘shdilar.

Shu bilan birgalikda maktablarda, oliy o‘quv yurtlarida O‘zbekiston tarixini o‘qitish yangicha mazmun va mohiyat kasb etdi. Amir Temur haqida, bosqinchilarga qarshi shiddatli kurash olib borib, milliy qahramonlarga aylangan Jaloliddin Manguberdi, Temur Malik, Mahmud Tarobiy xususida, Rossiya imperiyasining mustamlakachilik siyosatiga qarshi kurashgan shaxslar to‘g‘risida tarixiy haqiqatni aytish, yoshlarga to‘g‘ri bilim berish, to‘g‘ri tarbiyalash ziyolilar oldida turgan muhim vazifa bo‘lib, u milliy qadriyatlar ramzining asosini tashkil etadi.

Shuningdek, o‘rta maktablar uchun yangi darsliklar yaratildi. Bunda O‘zR FA Tarix instituti ilmiy jamoasi a’zolari muhim o‘rin egalladilar. Markaziy Osiyolik bir qator mutafakkirlarning xalqaro va respublika miqyosida o‘tkazilgan yubiley tantanalariga ham tarixchi olimlar ilmiy asarlarini sovg‘a qildilar.

O‘zbek davlatchiligi tarixiga oid qator ilmiy izlanishlar amalga oshirildi[10]. Markaziy Osiyo xalqlarining eng qadimgi davrdan Rossiya imperiyasi bosqinigacha bo‘lgan davr tarixi ham keng o‘rganilib jamoatchi-likka yetkazildi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat va jamiyat qurilishi akademiyasi qoshida tashkil qilingan "O‘zbekiston-ning yangi tarixi markazi"da Respublikadagi bir qator olimlar tomonidan 3ta kitobdan iborat "O‘zbekistonning yangi tarixi"[11] nashr etildi.

O‘zR FA Sharqshunoslik instituti ham mustaqillik yillarida o‘z faoliyatini ancha jonlantirib yubordi. Institut jamoasi qator qo‘lyozma asarlarini tadqiq qilib nashr ettirdilar. Ular orasidan yurtimiz tarixi, madaniyati, falsafa va diniy sohaga oid asarlar mavjudki, bular hozirgi kunda ham jamiyat a’zolarini ma’naviy kamolat sari yetaklashda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Jamiyatning ma’naviy yuksalishida milliy urf-odatlar, an’ana va marosimlarning chuqur o‘rganilishi, ularni qayta tiklab, hayotimizga singdirilishi ham muhim ahamiyatga egadir. Bu borada ziyolilar tomonidan amalga oshirilgan ishlar hamda Respublika rahbariyatining ularga munosabati va qo‘llab-quvvatlashlari o‘ziga xos o‘rin tutdi. Respublikamiz miqyosida milliy urf-odatlar, an’analarni ilmiy o‘rganishga kirishildi. I. Jabborov, G. Mardonova, X. Ismoilov va boshqalar urf-odatlarni targ‘ib etuvchi juda ko‘plab asarlar yaratdilar[12]. Ziyolilar ushbu adabiyotlarda xalqimiz nishonlab kelayotgan an’analar, urf-odatlar hamda irimlarga to‘g‘ri baho berib, ularning mohiyatini, ijobiy va salbiy jihatlarini yoritib berdilar. Bu bilan ular asrlar davomida shakllangan, faxrlansa arziydigan hamda ma’naviy hayotimizga ijobiy ta’sir etuvchi odatlar, marosimlar va an’analarni ko‘z qorachig‘idek asrash hamda kelgusi avlodlarga yetkazishga o‘z hissalarini qo‘shmoqdalar.

Istiqlol davrida milliy qadriyatlarni o‘rganish va ularni tadbiq qilish uchun tavsiyalar ishlab chiqish, milliy qadriyatlarni tiklash, allo-malar yubileylarini o‘tkazish va nomlari unutilib ketgan, lekin o‘z ishla-ri bilan xalqimiz madaniy hayotida chuqur iz qoldirgan kishilarni izlash va ijodlarini o‘rganish ishlariga alohida e’tibor berila boshlandi. Bu borada respublikada birinchi bo‘lib

DOI: 10.65322/j.srd.04182026.40

Toshkent davlat universitetida "O‘zbek milliy qadriyatlari" ilmiy-tadqiqot marka-zi ish boshladi[13]. Markazda faoliyat olib borayotgan ziyolilarning tashab-bus va taklifi bilan Najmiddin Kubro, Ahmad Yassaviy, Bahovuddin Naqshbandiy kabi allomalarning tarix sohasida faoliyati va ta’limotiga bag‘ishlangan davra suhbatlari, radio va televizion uchrashuvlar uyushti-rildi hamda ilmiy-tadqiqot markazi to‘plagan materiallar nashr etildi [14].

Mustaqillik sharoitida ma’naviy yuksalish haqida gap ketar ekan, uning muhim manbai bo‘lgan islom ma’naviyatiga ham to‘xtalish joiz. Insonning ma’naviy dunyosini shakllantirishda diniy ma’naviyat, ya’ni islomiy ma’naviyat muayyan rolga ega. Agar din inson ma’naviy ehtiyoj-larini qondirishga xizmat qilmaganda, u kishilar ongiga bunchalik singib ketmagan bo‘lar edi.

Mustaqillik davrida ma’naviyatni bir bo‘lagi bo‘lgan dinga ijobiy munosabat shakllandi. L. Levitin xalqning dinga bo‘lgan munosabatini "O‘zbeklarning aksariyat ko‘pchiligi chinakamiga dindor. Islom asrlar davomida O‘zbekiston xalqi uchun ham din, ham ma’naviyat, ham vijdon, ham ma’rifat bo‘lib keldi. O‘zbeklarning ijtimoiy ongida shariatga asoslangan huquqiy madaniyati mahkam o‘rnashgan" [15], deya baholaydi.

Jamiyat a’zolarining diniy marosim va urf-odatlarni bajarishlari uchun sharoitlar yaratildi. Ma’naviyat o‘choqlaridan hisoblangan masjid va madrasalar qurildi, eskilari ta’mirlandi. 1998 yilga kelib respubli-kada faoliyat ko‘rsatayotgan masjidlar soni 4504 taga yetdi[16]. Shu bilan birgalikda mustaqillik yillarida diniy tashkilotlarning soni ham o‘sdi. 1990 yilda Respublikada 119 ta diniy tashkilot mavjud bo‘lgan bo‘lsa, 2004 yil 1 avgustga kelib ularning soni 2170 taga yetdi. Diniy o‘quv yurtlarini ishi rivojlantirildi. Mustaqillikkacha bor-yo‘g‘i 2 ta diniy o‘quv yurti ishlagan bo‘lsa, o‘tgan yillarda ularning soni 11 taga yetdi.

Toshkent Islom institutini 1975-1990 yillar orasida 153 kishi, "Mir arab" madrasasini 1950-1990 yillar orasida 272 kishi, umuman olganda sobiq sovet davrida diniy bilim yurtlarni jami 425 kishi bitirgan bo‘lsa, mustaqillik yillarida, ya’ni 1991-2004 yillar orasida 5058 kishi bitirib chiqdi [17]. Shu jumladan, imomlarning diniy ma’lumoti darajasini sezilarli darajada oshirilishiga ham erishildi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1995 yil 19 maydagi qarori bilan tashkil etilgan Xalqaro Islom tadqiqot markazi olimlari musulmonlarga milliy qadriyatlarni, haqiqiy islom ta’limoti-ni yetkazish, mavjud atiqalar tarixini o‘rganish, nodir qo‘lyozma asarlari-ni tadqiq etish, ular bilan keng jamoatchilikni tanishtirish, darslik va qo‘llanmalar, lug‘atlar tayyorlash va nashr qilishda bir qator ishlarni amalga oshirmoqdalar.

Xalqning ma’naviyatida yuz bergan diniy sohadagi yo‘qotishlarni to‘l-dirishga kirishildi. Diniy asarlarni nashr etish sur’ati oshdi. Mustaqillik sharofati bilan "Islom nuri" haftanomasi dunyoga keldi, ko‘plab diniy axloqiy adabiyotlar chop etildi. Ziyolilar tomonidan Imom al-Buxoriyning to‘rt jildlik "al-Jome’ as-sahih" to‘plami, Imom at-Termiziyning "Sunan at-Termiziy" to‘plami, Burhoniddin Marg‘inoniyning "Hidoya" va boshqa allomalar asarlari xalq ommasiga taqdim qilindi. Qur’oni Karim sakkiz marta, jami bir million nusxada nashr etildi. Bu muqaddas kitob yurtimizda ilk bor Alouddin Mansur keyinchalik Abdulaziz Mansur tomonidan tarjima qilindi [18]. Muhammad Sodiq Muhammad Yusufning "Tafsiri Hilol" nomli kitobi chop etildi. Ziyolilar tomoni-dan respublika hukumati rahbarligi hamda bevosita yordamida amalga oshirilgan bu ishlar diniy bag‘rikenglik va jamiyatni ma’naviy yuksaltirishga qaratildi.

Respublikada o‘tkazilgan tadbirlar orasida Imom al-Buxoriy, Baho-vuddin Naqshband, Najmiddin Kubro, Imom at-Termiziy, Imom al-Motu-ridiy, Burhoniddin Marg‘inoniy kabi mutafakkirlar yubileylari ham fan rivojida o‘chmas iz qoldirdi. Ularning ma’naviy va ilmiy meroslari chuqur o‘rganildi, asarlari chop etildi. Bir qator tarixchi, sharqshunos va faylasuflarning ilmiy izlanishlari natijasida ushbu mutafakkirlar haqida qimmatli ma’lumotlarga ega bo‘lindi.

O‘zR FA Sharqshunoslik instituti olimlarining bir qator asarlari bunga misol bo‘la oladi. Jumladan, R. Bahodirov, D. Rasulovning "Islom ilmining buyuk allomalari", H. Islomiyning "Najmiddin Kubro", "Ifor hid ila tug‘ilgan Orif", "Abu Mansur Moturidiy", Sh. Ziyodovning "Al

DOI: 10.65322/j.srd.04182026.40

Moturidiy hayoti va merosi", M. Hasaniyning "Al-Marg‘inoniyning "Hidoya" asari va unga yozilgan sharhlar", O. Qoriyevning "Al-Marg‘inoniy – buyuk fiqxshunos" kabi asarlari chop etildi.

Shuningdek, mamlakatda istiqomat qilayotgan ko‘p konfessiyali millatlar va elatlarning diniy e’tiqodi va qarashlariga keng yo‘l ochib berilgan, hamda huquqiy jihatdan himoyalangan. "Hamma uchun vijdon erkinligi kafolatlanadi. Har bir inson xohlagan dinga e’tiqod qilish yoki hech qaysi dinga e’tiqod qilmaslik huquqiga ega. Diniy qarashlarini majburan singdirishga yo‘l qo‘yilmaydi" [19], deyiladi O‘zbekiston Respub-likasi Konstitusiyasining 31- moddasida.

130 dan ziyod millat va elat vakillari istiqomat qilayotgan, aholisining ruhiy va ma’naviy ehtiyojlari turlicha bo‘lgan O‘zbekistonda tili, millati, irqi, dini va ijtimoiy mavqeidan qat’i nazar, insonni ulug‘lash bosh yo‘nalishdir.

Ayni paytda, O‘zbekistonda Islom dini bilan bir qatorda pravos-lavlar, baptistlar, yahudiylar, adventistlar, katoliklar, lyuteranlar, bohoiylar, krishnachilar, buddistlar, pyatidesyatniklar, Iyegova shohidlari, yangi havoriylar, xristian-presviterianlar singari o‘nlab konfessiyalar mavjud [20]. Ushbu dinlarning har biri o‘ziga xos mafkurasi, tartib-qoidalari, dindorlar turmush tarzi, dunyoqarashi va aqidalariga ega. O‘zbekistonda davlatning dinga bo‘lgan munosabatida dinlararo bag‘rikeng-lik tamoyili muhim o‘rin tutadi.

Mustaqillik sharoitida xalq ma’naviy dunyosini rivojlantirish uchun Sharq falsafasi, Islom falsafasi, ajdodlar merosini o‘rganish bilan birga dunyoviy bilimlarni chuqur egallash ham talab etiladi. O‘zbek xalqi ma’naviyati esa ko‘p asrlik teran tomirlarga ega ediki, bu ma’naviyat ana shulardan quvvat olib rivojlanib kelgan. Mustaqillik ma’naviyati ana shu manbadan oziqlanib, qudratli kuchga aylanishi mumkin. Bunda faylasuf olimlar faoliyati o‘ziga xos o‘rin tutadi. M. Xayrullayev, J. Tulenov, X. Aliqulov, A. Xakimjanova, Y. Jumaboyev, S. Shermuhammedov va boshqalar falsafa faniga kommunistik mafkuradan xoli tarzda yondashish, jahon falsafiy merosini va Sharq falsafasini o‘rganish ishlariga o‘z hissalarini qo‘shdilar. Ular tomonidan yangi asarlar, darslik va monografiyalar yaratildi [21]. Oliy o‘quv yurtlarida o‘qitiladigan falsafa fani dasturlari tubdan o‘zgartirildi. Yangi darsliklar yozishda J. Tulenov, Z. G‘ofurov va boshqa olimlar tashabbus ko‘rsatdilar. Falsafaga marksizm ruhidagi materialistik qarashdan voz kechib, umuminsoniy qadriyatlar asosida yondashildi.

Xulosa. Respublikada zamonaviy ta’lim tarbiya tizimini shakllantirish asosida xalqimiz, avvalo, yoshlarning ilmiy dunyoqarashi, yangicha fikrlash, tafakkur qilish, iqtisodiy, siyosiy, dunyoviy ilm sirlarini egallash, vatanga muhabbat ruhida tarbiyalash jarayoniga e’tibor kuchaytirildi. Bu ishlarni amalga oshirish ziyolilar zimmasidagi vazifa qilib belgilandi. Shu maqsadda Respublika hukumati boshchiligida ta’lim sohasida islohotlarni amalga oshirish yo‘lga qo‘yildi.

Mustaqillikning dastlabki yillaridanoq bunday noyob ixtisoslikka ega mutaxassis kadrlar yetishmasligi muammolarga chek qo‘yish maqsadida bir qator o‘quv yurtlarining maqomi, dasturlari va ta’lim uslublari butunlay o‘zgartirildi. Shu paytgacha bo‘lmagan eng zarur ixtisosliklar bo‘yicha alohida zamonaviy universitet va institutlar, yangi o‘quv muassasalari tashkil etildi. Viloyatlardagi 8 ta pedagogika institutlariga Universitet maqomi berildi [22].

1992 yildan O‘zbekiston Respublikasining "Ta’lim to‘g‘risida"gi Qonuni kuchga kirdi. Ushbu qonunda ta’lim jamiyatni ijtimoiy-iqtisodiy, ma’naviy-madaniy rivojlantirishning ustuvor sohasi ekanligi e’tirof etildi.

O‘zbekistonda ta’lim tizimini isloh qilish jarayonida chet davlatlar bilan hamkorlikda lisey va gimnaziyalar vujudga keltirildi. Bulardan maqsad xalqni ma’rifatli, jahon ilmu fanidan, madaniyatidan xabardor qilish edi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati

1. Каримов И.А. Истиқлол ва маънавият. – Т.: Ўзбекистон, 1994. – Б. 81.

DOI: 10.65322/j.srd.04182026.40

2. Носирхўжаев С.Ҳ., Лафасов М.Ф., Зарипов М.З. Маънавият асослари. – Т.: Фан, 2002. – Б. 12.

3. Маманазаров Н.А. Тожикистоннинг мустақиллик шароитида қишлоқнинг ижтимоий янгиланишида қишлоқ зиёлиларининг ўрни ва роли.: Фалсафа фан.ном. ... дис. – Т., 1995. – В. 22.

4. Ўзбекистон Компартияси XXII съездида Президент И.А. Каримов маърузаси // Совет Ўзбекистони. 1990, 5 июн.

5. Ўзбекистоннинг янги тарихи. Мустақил Ўзбекистон тарихи. 3- китоб. ... – Б. 380.

6. Самандар Э. Озодлик шабадаси // Ўзбекистон адабиёти ва санъати. 1991, 13 декабр.

7. Қодиров М. Абадий ҳамнафаслик // Ўзбекистон овози. 1991, 25 сентябр.

8. Хабибуллаева Д. Ўзбекистонда умуминсоний ва миллий қадриятларнинг қайта тикланиши.: Тарих фан. ном. … дис. – Т., 1995. – В. 33.

9. Каримов И. Тарихий хотирасиз келажак йўқ – Т.: Шарқ, 1998. – Б. 3.

10. Зиёев А. Ўзбек давлатчилиги тарихи. Энг қадимги даврдан Россия босқинига қадар. – Т.: Шарқ, 2000.

11. Ўзбекистоннинг янги тарихи: Туркистон чор Россияси мустамлакачилиги даврида. 1-китоб / Тузувчилар: Х. Содиқов, Р. Шамсуддинов, П. Равшанов, Қ. Усмонов. – Т.: Шарқ, 2000; Ўзбекистон совет мустамлакачилиги даврида 2-китоб. – Т.: Шарқ, 2000; Мустақил Ўзбекистон тарихи / муаллифлар жамоаси. 3-китоб – Т.: Шарқ, 2000.

12. Жаббаров И. Ўзбек халқи этнографияси. – Т.: Ўқитувчи, 1994; Мардонова Г. Нур тўла уй. – Т., 1992; Исмоилов Х. Ўзбек туйлари. – Т., 1992.

13. Ҳабибуллаева Д. Ўзбекистонда умуминсоний ва миллий қадриятларнинг қайта тикланиши … – В. 92.

14. Ҳабибуллаева Д. Ўзбекистонда умуминсоний ва миллий қадриятларнинг қайта тикланиши … – В. 92.

15. Левитин Л. Ўзбекистон тарихий бурулиш палласида. – Т.: Ўзбекистон, 2001. – Б. 182.

16. Жўраев Н. Агар огоҳ сен… – Т.: Ёзувчи, 1998. – Б. 142.

17. Диний экстремизм ва терроризмга қарши курашнинг маънавий-маърифий асослари. Тўплам / Масъул муҳаррир З. Ҳусниддинов. – Т.: Тошкент ислом университети, 2005. – Б. 13.

18. Ўзбекистоннинг янги тарихи. Мустақил Ўзбекистон тарихи. 3-жилд... – Б. 411

19. Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. – Т.: Ўзбекистон, 2003. – Б. 8.

20. Жўраев Н. Агар огоҳ сен... – Б. 145.

21. Ўзбекисонда ижтимоий фалсафий фикрлар тарихидан / Маъсул мух. А.Хакимжанова. Тузувчилар М. Хайруллаев, Х. Аликулов – Т.: Ўзбекистон, 1995; Жумабоев Й. Ўзбекистонда фалсафа ва аҳлоқий фикрлар тараққиёти тарихидан. – Т.: Ўқитувчи – Зиё-Нашр, 1997; Туленов Ж. Қадриятлар фалсафаси. – Т.: Ўзбекистон, 1998.

22. Қаранг: Ўзбекистон овози. 1992, 29 феврал; Маърифат. 1992, 3 март.